


BIRIKISH DETALLARI

Rezbalar yordamida birikmalar hosil qiladigan rezbali detallarga mahkamlash detallari deb aytiladi. Bularga bolt, vint, shpilka, gayka va fitinglar kiradi. Detallarni biriktirishda gayka ostida shayba qo`yiladi. Siltanib, tebranib ishlaydigan mahkamlash detallari o`z-o`zidan ochilib ketmasligi uchun prujina shaybalar va shplintlardan foydalaniladi. Bu detallarning shakli va o`lchamlari GOSTlarda belgilangan. Mahkamlash detallari stanokda ishlov berish paytida qanday vaziyatda bo`lsa, ular shunday vaziyatda chiziladi.


Bolt. Bolt bir tomoniga rezbasi bo`lgan ikkinchi tomoni esa xar xilt shakldagi kallakdan iborat sterjen (2.11-shakl).



2.11-shakl


Sterjenning rezbali tomonining uchiga o`qga nisbatan 45^0 burchakli konus faska chiqarilgan. Kallakning sterjenga qaragan tomoni tekis qilib ishlangan. Uning ikkinchi tomoniga yasovchilar o`qqa nisbatan 60^0 , tomoniga nisbatan 30^0 burchakka qiya bo`lgan konus faska hosil qilingan. Boltlarning kallagi olti qirrali, kvadrat, yarim-yumaloq, silindrik va shunga o`xshash shakllarda bo`ladi.

Asosan aniqlik darajasi past, normal va yuqori bo`lgan boltlar ishlab chiqariladi. Boltlar o`ziga xos konstruktsiyasi (tuzilishi) bo`yicha uch xil bajariladi: I bajarilish – bolt sterjeniga shplint uchun teshik bo`lmaydi (2.12-shakl, a); II bajarilish – bolt sterjenining rezbali qismiga shplint uchun mo`ljallangan teshik bo`ladi (2.12-shakl,b). Bu teshik birikmadagi gayka har xil tebranish, silkinishlarda o`z-o`zidan buralib ochilib ketmasligi uchun shplintga mo`ljallangan; III bajarilish – bolt kallagida ikkita teshik bo`ladi (2.12-shakl, c). Bu teshiklar boltni o`z-o`zidan buralib ochilib ketmasligi uchun shplintovka simlariga mo`ljallangan.



2.12-shakl

Sterjin kallagi konus fastkali olti burchakli prizma bo`lgan bolt ko`p tarqalgan (2.11-shakl). Bolt chizish uchun uning o`lchamlari **GOST 7798-96** da keltirilgan. Boltni chizmasini chizish uning kallagini chapdan ko`rinishini chizishdan boshlanadi (2.13-shakl). D diametrli aylana chizilib, unda ichki muntazam oltiburchak chiziladi. Uning qarama-qarshi joylashgan o`zaro parallel tomonlari orasidagi S masofa kalit o`lchamini belgilaydi.



Bolt GOST 7789-96

$$\begin{aligned}
 D &= 2d \\
 h &= 0,7d \\
 S &= 1,7d \\
 d_1 &= 0,85d \\
 l_0 &= 2d+6 \\
 c &= 0,15d \\
 R &= 1,5d
 \end{aligned}$$

2.13-shakl

| Rezba turlari | Chizmada rezbalarni belgilash | | | |
|---|----------------------------------|----------|--|----------|
| | Rezba o'qiga parallel tekislikda | | Rezba o'qiga perpendikulyar tekislikda | |
| | Sterjenda | Teshikda | Sterjenda | Teshikda |
| <i>Yirik qadamli metrik rezba GOST 24705-96</i> | | | | |
| <i>Mayda qadamli metrik rezba GOST 24705-96</i> | | | | |
| <i>Bir kirimli trapetsiyasimon rezba GOST 9484-96</i> | | | | |
| <i>Truba silindrik rezba GOST 6357-96</i> | | | | |
| <i>Truba konussimon rezba GOST 6211-96</i> | | | | |
| <i>Konus dyumli rezba GOST 6111-96</i> | | | | |

Bosh ko`rinishda bolt kallagi balandligi (**h**) uzunligida, kallak qirralarining konturlari chiziladi. Kallakning chap yon tomoniga **D₁** diametrga teng kesmani o`lchab qo`yib, uning **a** va **s** nuqtalaridan **30°** burchak ostida chetki qirralarining proeksiyalari kesishadi. Har bir qirraning frontal va profil proeksiyalarida topilgan nuqtalar orqali aylana yoylari o`tkaziladi.

Bolt shakli, o`lchami va yasalish aniqligi (normalligi, yuqori aniqlikdaligi, dag`alligi) ga qarab, har-xil turlarga bo`linadi. Eng ko`p tarqalgani kallagi olti yoqli normal aniqlikdagi bolt bo`lib u GOST 7798-96 berilgan.

Kallak osti radiusi R va ℓ uzunlikdagi sterjenga chiqarilgan rez`ba uzunligi l_0 GOST 7798-96 dan aniqlanadi. Yirik qadamlı rezbasining diametri d , sterjeni uzunligi ℓ bo`lgan kallagi olti yoqli boltning shartli belgisi.

Kallagi olti qirrali boltlarning o`lchamlari (GOST7798-96)

| Rez`ba uzunligi d | Klyuchga tushuvchi razmer S | Kallag uzunligi H | Kallagining diametrik D | Kallagining ostidagi radiusi r | | Bolt uzunligi l | l_0 |
|------------------------|-----------------------------------|------------------------|------------------------------|--|-------|----------------------|---------|
| | | | | kami | Ko`pi | | |
| 16 | 24 | 10 | 26,5 | 0,6 | 1,6 | 45-300 | 38-44 |
| 18 | 27 | 12 | 29,9 | 0,6 | 1,6 | 55-300 | 42-48 |
| 20 | 30 | 13 | 33,3 | 0,8 | 2,2 | 55-300 | 46-52 |
| 22 | 32 | 14 | 35,0 | 0,8 | 2,2 | 60-300 | 50-56 |
| 24 | 36 | 15 | 39,6 | 0,8 | 2,2 | 65-300 | 54-60 |
| 30 | 46 | 19 | 50,9 | 1,0 | 2,7 | 75-300 | 66-72 |
| 36 | 55 | 23 | 60,8 | 1,0 | 3,2 | 90-300 | 78-84 |
| 42 | 65 | 26 | 72,1 | 1,2 | 3,3 | 105-300 | 90-96 |
| 48 | 75 | 30 | 83,4 | 3 | 5 | 110-300 | 100-106 |

Gayka. Gayka teshigi rezbali bo`lib, bolt, vint yoki shpilka sterjeniga buralib, ajraladigan rezbali birikma hosil qilish uchun foydalananiladigan detal. Gayka kvadrat, oltiyoqli va boshqa xil shakllarda bo`lishi mumkin (2.14-shakl).




2.14-shakl

Olti yoqli gayka normal balandlikda, past, baland va maxsus balandlikda; normal, yuqori va dag`al (dag`al ishlangan) aniqlikda bo`lishi mumkin. Olti yoqli gayka bolt kallagini chizgandek bajariladi (2.15-shakl). Olti yoqli gayka eng ko`p tarqalgan bo`lib, ulardan ikki faskali (yuqori aniqlikdagi)si GOST 5927-96 bo`yicha, bir faskali (normal aniqlikdagi)si GOST 5915-96 bo`yicha tayyorlanadi.

Yirik qadamli va rezbasining diametri $d=12\text{mm}$, mustahkamlik klassi 5 bo`lgan olti yoqli gaykaning shartli belgisi: Gayka M12.5 GOST 5915-96.

Silkinish va tebranishga ishlaydigan buyumlarning detallarini biriktirishda GOST 5918-96 bo`yicha tayyorlanadigan o`yiqli va tojsimon gaykalar ishlatiladi (13-shakl, d va e). Kalitsiz qo`l bilan burab qo`yish uchun GOST3032-96 bo`yicha tayyorlanadigan quloqchali gayka ishlatiladi (13-shakl, f).

Gaykalarni ham ishlab chiqarish uchun mo`ljallanmagan chizmalarini soddalashtirib chizishga ruxsat beriladi (16-shakl, a). Uning rezbasini diametridan foydalanib, qolgan elementlarini o`lchamlari aniqlanadi. Gaykaning yanada soddalashgan tasviri 14-shakl, b da ko`rsatilgan.



Gayka GOST 5915-96
 $D=2d$
 $H=0,8d$
 $S=1,7d$
 $d_1=0,85d$
 $c=0,15d$
 $R=1,5d$
 $R_2=d$

2.15-shakl

Shayba. Shayba rezbasi bo`Imagan, sterjen diametridan kattaroq teshigi bo`lgan, qalinligi ancha yupqa bo`lib, gayka yoki bolt kallagi ostida qo`yiladigan detal. Shayba birikadigan detallarni ezilishdan, shikastlanishdan saqlaydi.



a

b


2.16-shakl

Har xil tuzilishdagи shaybalar bo`ladi. GOST 11371-96 bo`yicha tayyorlanadigan shaybalar dumaloq xalqa shaklida bo`lib, ikki xil bajariladi: I bajarilish faskasiz va **II bajarilish faskali bo`ladi** (2.16-shakl, a va b).

Shaybaning shartli belgisiga «shayba» so`zi va mahkamlash detali sterjenining diametri, materiali guruhining shartli belgisi, qoplamaning shartli belgisi va uning qalinligi va shaybaning GOSTi ko`rsatiladi. Masalan, yumaloq shayba, 2-bajarilish sterjenining diametri 12 mm bo`lgan bolt uchun 01 guruh materialdan tayyorlangan, 09 qoplamali (sinkali), qoplama qalinligi 9 mm bo`lgan shaybaning shartli belgisi quyidagicha yoziladi:



Shayba GOST 11371-96 M 3:1



Shayba GOST 11371-96
 $c=0,1d$
 $S_{sh}=0,15d$
 $d_{sh}=1,1d$
 $D_{sh}=2,2d$

2.18- shakl

Uning o`lchamlari bolt, shpilka yoki vint rezbasining diametri (d)dan foydalanib aniqlanadi:

teshigining diametri $d_{sh}=1,1*d$,

tashqi diametri - $D_{sh}=2,2*d$,

qalinligi - $S_{sh}=0,15*d$,

faskasining eni diametri - $C_{sh}=0,25^{\circ}S,b$ ga teng (2.18-shakl).

Shpilka. Shpilka sterjenden iborat bo`lib. uning bir uchidagi rez`ba o`tqazuvchi uchi deb nomlanib bu uchi, birikuvchi detallaming biriga burab kiritiladi, ikkinchi uchidagi rezba esa siquvchi uchi deb nomlanib, bu uchiga gayka buraladi (2.19-shakl). Detallarni rezbali biriktirishda boltning kallagiga joy bo`lmasa birikuvchi detallardan bir qancha qalin bo`lganda uzun boltdan foydalanish maqsadga muvofiq bo`lmasa shpilkadan foydalilanadi.


Shpilkaning shakli GOST 22032-96-COST 22043-96 larda belgilangan.

Shpilka normal va yuqori aniqlikda rez`bali uchlari har hil yoki bir xil uzunlikda bo`lishi mumkin. O`tqazuvchi uchidagi rez`baning uzunligi, burab

kiritiladigan detaining teshigi diametriga va materialiga bog`liq. Masalan. detal: po`lat, bronza va latun bo`lsa, 11 -d (GOST 22032-96 va COST 22033-96 , kulrang cho`yan bo`lsa 1*25d (GOST 22034-96 va GOST22035-96);yengil qotishma bo`lsa, 11 =2d qilib olish ruxsat beriladi (GOST 22038-96 va GOST 22039-96).



2.19-shakl



Shpilka GOST 22032-96

$$l_a = (1,5 \dots 2)d$$

$$l_t = d$$

$$c = 0,15d$$



$$S_{sh} = 0,30$$


$$K = 0,3d$$

$$L_{sh} = a + S_{sh} + H + K$$

2.20- shakl

Vint. Vint silindrik sterjen bo`lib, uning bir tomoniga rez`ba chiqarilgan, ikkinchi tomonida esa, tayanch uchun kallagi bor. Vint detallarni mahkamlash va o`rnatish uchun ya`ni mashina va mexanizimlarni yig`ishda detallarni bir-biriga nisbatan muayyan holatda joylashtirib mahkamlash uchun foydalilanadi. Ularning bir-biridan farqi o`rnatish vintining bir tomoni to`liq kesilgan va ikkinchi tomonida silindrik yoki konus yoki boshqa xil shaklda chiqib turgan qismi proeksialarida bo`ladi; mahkamlash vintining kallak qismi otvyortka (ochar) uchun o`yig`i bo`ladi yoki klyuch (kalit) uchun qisman kesilgan bo`ladi (2.21-shakl).






2.21-shakl

Vint kallagining o'lchami va shakli standartlashtirilgan. Silindrik kallakli vintning o'lchamlari GOST1491-96da, yarim yumaloq kallakli vintning o'lchamlari GOST 17473-96 da (2.21-shakl,a), yashirin kallakli vintning o'lchami GOST 17475-96da (2.21-shakl,c) yarim dumaloq va yarim yashirin kallakli vintning o'lchamlari GOST 17474-96 da berilgan.

Shplint. Shplint-rezbali birikmada gaykani tashqi kuch tasirida buralib ochilib ketmaslik uchun ishlataladi. U yarim yumaloq kesimli yumshoq polat simdan tayyorlangan bo`lib, halqa shaklidagi ilmoqdan va yumaloq sterjenden iborat (2.22-shakl).



2.22-shakl

Shplintdan foydalanish zarur bo`lgan birikmalarda kesilgan va tojli bo`lgan gaykadan foydalaniadi. Shplint uchun rezbali sterjenga teshik bo`ladi. Shplintning o`lchamlari va belgilanishi GOST397-96da berilgan.

Shplintning uzunligi $\ell \geq 40$ mm, shartli diametri 5mm bo`lsa, quyidagicha shartli belgilanadi:

Shplint 5x40 GOST 397-96.

Mahkamlash detallariga oid amaliy ish -shaklda ko`rsatilgandek bajariladi. Bu ishga oid topshiriq variantlari.

Shplintlar
GOST 397-96

| O`lchamlari, mm | | | | |
|--|----------|----------|----------------------|----------------------|
| <i>Shlint o`tadigan teshikning (parmaning) shartli diametri, d</i> | <i>d</i> | <i>D</i> | <i>l₁</i> | <i>l₂</i> |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 0,6 | 0,4 | 1,0 | 2 | 1,6 |
| 0,8 | 0,6 | 1,4 | 2,4 | 1,6 |
| 1 | 0,8 | 1,8 | 2,5 | 1,6 |
| 1,2 | 0,9 | 2,0 | 3 | 2,5 |
| 1,6 | 1,3 | 2,8 | 3,2 | 2,5 |
| 2 | 1,7 | 3,6 | 4 | 2,5 |
| 2,5 | 2,1 | 4,5 | 5 | 2,5 |
| 3,2 | 2,7 | 5,8 | 6,4 | 3,2 |
| 4 | 3,5 | 7,4 | 8 | 4 |
| 5 | 4,5 | 9,2 | 10 | 4 |

| | | | | |
|-----|-----|------|------|---|
| 6,3 | 5,7 | 11,2 | 12,6 | 4 |
| 8 | 7,5 | 15 | 16 | 4 |

L ning qiymati ushbu qatorlardan tanlab olinadi: 4, 5, 6, 8, 10, 12, 14, 16, 18, 20, 22, 25, 28, 32, 36, 40, 45, 50, 55, 60, 70, 80, 90.

2. Shartli d_0 diametri 8 mm dan ortiq bo`lgan shplint o`lchamlari ushbu jadvalga kiritilmagan.

3. L uzunlikning GOST 5918 – 73 bo`yicha gaychalar uchun berilgan 54 jadvaldan tanlab olish mumkin.

4. 00- gruppacha materialidan qoplamsiz (0 gruppasi) ishlangan shplintlar belgisida materiali va qoplamasi ko`rsatilmaydi.

Shartli diametri $d_0=5$ mm, uzunligi $L=28$ mm bo`lgan, 00 gruppacha materialidan ishlangan va 1 gruppasi bo`yicha qoplangan shlintning shartli belgilanishi:


Shplint 5×28-001 GOST 397-79

O`shaning o`zi, 20 gruppacha materialidan ishlangan va 7 gruppasi bo`yicha qoplangan shlintning shartli belgilanishi:

Shplint 5×28-207 GOST 397-79

Shponka. Prizmatik shponkalar yumaloqlangan (A ishlanish) va to`rtburchakli (B ishlanish) bo`ladi. Ularning ish chizmasini chizishda faskalari va shponka barcha elementlarining o`lchamlari ko`rsatilgan bo`lishi kerak. (-shakl).


Prizmatik shponkalar, masalan, quyidagicha belgilanadi: Shponka A $12 \times 8 \times 60$ GOST 8789-68, bu yerda A- bajarilishi, eni $b=12$ mm, balandligi $h=8$ mm va uzunligi $l=60$ mm. Huddi shunday o`lchamli, B ishlanishidagi shponka B $12 \times 8 \times 60$ GOST 8789-68 ko`rinishda belgilanadi.



2.23-shakl


Segmentsimon shponkalar vallarni ensiz vtulkalar bilan qo`zg`almas qilib biriktirishda ishlatiladi (6-shakl). Shponka va ariqchalarining o`lchamlari GOST 8794-68 va GOST 8795-68 lardan olinadi. Eni $b=5$ mm va balandligi $h=10$ mm

bo`lgan segmentsimon shponkaning belgilanishi: segm-shponka 5×10 GOST 8795-68.



2.24-shakl

Panasimon shponkalar yuqori aniqlikda tayyorlanmagan mexanzlarda ishlatiladi. Bunday ponalar va g`ildirakvtulkasi o`yiqlari qiyaligi 1:100 bo`lib, ponaval bilan vtulkaka o`yig`i orasiga urinib kirdiziladi. Valda shponka uchun ariqcha o`yiladi yoki tekis qilib kesib tashlanadi (7-shakl, b, r). Birikma chizmasida faqat shponka kallagining faskasi ko`rsatilgan. Shponka kallagi biriktiriluvchi detal topesiga nisbattan h miqdorga mos masofada turishi zarur. Shponka va ariqchalarning o`lchamlari GOST 8791-68 va GOST 8793-68 larda olinadi.



2.25-shakl

Fiting.


Pnevmatik, gidravlik va teplotexnikaviy ustanovkalarda trubalarning rezbali (biriktirish detallarisiz) birikmalari qo`llaniladi. Trubali bir-birlari bilan maxsus detallar-fitinglar vositasida biriktiriladi (2.26-shakl), bunday birikmalar birinchi trubaning uchini ikkinchi trubaning uchi bilan bevosita tutashtirish mumkin bo`limganyoki trubalar burchak ostida joylashgan hollarda qo`llaniladi.



2.26-shakl

Vodogazoprovod quvurlari uchun GOST 3262-96 bo`yicha tayyorlangan po`lat trubalar ishlataladi. Ularnin goxirlarida GOST 6367-96 bo`yicha dyuyumli silindrik rezbachiqarilgan bo`ladi. Trubalarni boshlang`ich o`lchami sifatida ulaming taxminan ichki diametriga teng bolgan shartli otish (Dsh) ning qiymati beriladi. Truboprovodlami o`zaro biriktimvchi qismlari (fitinglar) ning o`lchamlari trubaning sharlli o`tishning qiymatiga bog`liq. Trubalarni bir-biriga ulash (biriktirish) uchun ugolnik, mufta, kontrgayka va troynikdan foydalaniladi. Bu birikuvchi detallardan ugolnikning o`lchamlari GOST8946-96da, tog`ri toynikning o`lchamlari GOST8948-96da, to`g`ri muftaning o`lchanilari- GOST8955-96da berilgan. Bularning shartli belgisida ulovchi detaining nomi shartli o`tish diametri (mm.da) va standart raqami bo`ladi. Masalan, to`g`ri mullaning shartli o`tish diametri 40 mm bo`lsa, bunday mufti quyidagicha belgilanadi. To`g`ri mufta 40 GOST 8955-96.





2.27-shakl

chimachilik.uz